исследовании особое внимание уделялось состоянию сердечно-сосудистой системы: анализировались жалобы, проводилось физикальных исследование сердца, определились артериальное давление, характер и частота пульса, выявлялись признаки сердечной недостаточности; тщательно выяснилось наличие сопутствующих заболеваний сердечно-сосудистой системы. 149 больным проведено 432 электрокардиографических исследования.

Установлено, что изменения электрокардиограммы происходят с первых часов после ожоговой травмы, причём эти изменения развиваются как у больных с глубокими обширными, так и у больных с ограниченными поверхностными ожогами. Наиболее ранним и частым проявлением этих изменений была тахикардия. Изменения электрокардиограммы были выявлены нами во всех возрастных группах, в том числе у лиц моложе 40 лет без сопутствующих заболеваний сердечно-сосудистой системы. При этом у большинства больных они появились в ходе ожоговой болезни и уменьшились или исчезли к моменту заживления ожоговых ран, то есть были непосредственно связаны с ожоговой болезнью.

**Заключение.** Таким образом, изменения электрокардиограммы у больных с термическими поражениями обусловлены, вероятно, изменением функции миокарда в связи с его гипоксией, гипергликемией и другими факторами, влияющими на работу сердца в организме пораженного.

## OILAVIY SPIFOKORI FAOLIYATIDA TIBBIY DEONTOLOGIYA

**Asrorov A.A., Aminjonova Ch.A.**

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O'zbekiston*

Tibbiy deontologiya masalalariga bag‘ishlangan mavzudagi ilmiy nashrlar juda katta miqdorda yoritilishaga qaramay, birinchi qarashda ushbu muammoni to‘laqonli hal qilish deyarli maqsadga muvofiq emas. Deontologiya shifokorlik kasbining asosiy va ajralmas qismidir. Oilaviy shifokori (OSh) muhim kasb egasi bo‘lib, u nafaqat bemorlarini tashxislash va davolash, shuningdek bu bemorning butun oila a'zolari orasida ham kasalliklarning oldini olishga qaratgan butun maqsadli mutaxassisdir.

Shifokorlarni tayyorlash o‘quv jarayonida diplomgacha va diplomdan keyingi o‘qitishda tibbiy deontologiyani o‘qitish kasbiy mahoratini oshirish zarurligi yangi ma'lumotlar va eskilarining zamonaviy talqinini inobatga olgan holda alohida ahamiyat kasb etadi.

OShlarining o‘ziga xos deontologik prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- OSh bemorga yordam berish uchun hamma narsani qilishga majbur;

- OSh bemorga zarar yetkazadigan har qanday harakatlardan qochishi kerak;

- OSh nafaqat kasal bola bilan, balki uning ota-onasi, shuningdek, uning barcha oila a'zolari bilan ham muloqot qila olishi kerak;

- OSh o‘z hamkasblari bilan to‘g‘ri, do‘stona va demokratik (ommaga xos, xalqparvar, yaqin, odamiy, sodda) bo‘lishi kerak;

- OSh barcha soha shifokorlari singari shifokorlik sirlarini saqlashi shart;

- har bir OSh uchun oilaviy psixologiyaning ilmiy asoslari to‘g‘risida bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Deontologiya va etikaning barcha masalalarini ko‘rib chiqmay turib, biz tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining (OTM) bitiruvchi kurs talabalarini va OShlarni o‘qitish jarayonida vujudga keladigan ayrim ziddiyatlarga to‘xtalib o‘tsak. Biz olib boradigan fikrlar kelajakdagi oilaviy shifokorning ba'zi bir alohida qobiliyatlari haqida emas, balki axloqiy va kasbiy mahoratning boshlang‘ich to‘plami haqida bo‘lib, bu holda oilaviy shifokor keyingi amaliy faoliyatida busiz amalga oshirishi mumkin emas. Ma'lumki, barcha mutaxassislikdagi shifokorlar singari OShlari ham butun hayoti davomida bilimlarini yanada mukammallashtirib, tibbiyotdagi yangiliklar bilan boyitib borishlari, ya'ni malakalarini oshirib borishga majburdirlar. Buning uchun bo‘lajak shifokorlar o‘zlarining talabalik yillaridayoq o‘zlarining bilim faoliyatini bemorlarining barcha oila a'zolari bilan birga o‘rganishga yaroqlik mezoni xarakterida rivojlantirishi kerak. Bo‘lajak shifokorlar bu kabi fazilatlarni butun o‘quv jarayonidagi biror bir sikllarda va hatto bir yilda ham o‘zlashtirolmay, nafaqat o‘quv faoliyatini nazariy o‘zlashtirish shaklida, balki bir necha yillar davomida aniq ravshan bo‘lib, rivojlanib boradi.

Biz kelajakdagi bitiruvchilarimizda - bo‘lajak OShlarda kasbiy va axloqiy fazilatlarni ko‘rishni istash uchun ularni quyidagicha shakllantirish mumkin:

- tanlagan tibbiyot sohasida keng doiradagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi;

- eng qiyin vaziyatlardan chiqa bilishda qulay va sharafli yo‘lni topishi;

- nafaqat OShlarda, barcha sohadagi shifokorlarning bemorlar bilan va ularning oila a'zolari yoki tibbiyot xodimlari bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash kabi har bir harakatlari davomida deontologik qonun-qoidalarga qat'iy rioya qilishi;

- o‘zining natijalarini zaiflashtirmagan holda o‘z xatolarini tan olish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki,